

YANGI O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR

Isroilov Kamoliddin

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand

Davlat Universiteti O'zbekiston tarixi

kafedrasi tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA

Ushbu ishda, birinchidan, mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim sohasiga berilgan e'tibor, amalga oshirilgan islohotlar va ularning samarasi atroflicha yoritilgan. So'ngra Yangi O'zbekiston taraqqiyoti davriga kelib, bu sohaga qaratilayotgan e'tibor va bu sohaning rivoji uchun qilinayotgan ishlar taqqoslangan. Umuman, maktabgacha ta'lim sohasi, bu hozirda shiddat bilan rivojlanayotgan ijtimoiy sohalardan biri bo'lib, davlatimiz rahbari ham bu sohaga katta mablag' ajratmoqda. Bu ilmiy ish shu va boshqa kerakli masalalar haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, bog'cha, bolalar, intellekt, oilaviy MTM lar, ko'chma bog'cha, maktabgacha ta'lim vazirligi

«Bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – ijtimoiy ahvolidan qat'i nazar, bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat...»[1]. Ushbu maqsadlarni ro'yobga chiqarish maqsadida 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi[2].

Maktabgacha ta'lim yosh bolalarning rivojlanishidagi hal qiluvchi bosqichdir, chunki bu ularning kelajakdagi ilmiy muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. O'zbekistonda hukumat tomonidan keyingi yillarda maktabgacha ta'lim sifati va undan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda maktabgacha ta'limni rivojlantirish yo'lidagi asosiy yutuqlardan biri maktabgacha ta'lim muassasalari va bolalar bog'chalari sonining sezilarli darajada ko'payganidir. 2012-yilda O'zbekistonda jami maktabgacha yoshdagi bolalarning atigi 23 foizi maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olingan bo'lib, qishloq joylarda bu ko'rsatkich 8,5% ni tashkil etdi. 2017-yildan buyon maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida bugungi kunda O'zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarining 71,8% dan ortig'i maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olingan. Maktabgacha ta'limning mavjudligining bunday ortishi butun mamlakat bo'ylab,

ayniqsa, avvallari maktabgacha ta'lim muassasalari yetishmayotgan qishloq joylarida bolalarning foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashga yordam berdi.[3]

3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni kengaytirish nafaqat yangi muassasalarni qurish va eskilarini ta'mirlash hisobiga (qo'shimcha bola o'rinlarini joriy etish) balki, ota-onalar orasida maktabgacha ta'limning ahamiyati haqida faol tushuntirish va tashviqot ishlari olib borish, kam ta'minlangan oilalarning farzandlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hisobiga ham erishildi. Buning natijasida 2015-yilda yurtimizda maktabgacha ta'lim muassasalarida to'la foydalanilmay qolgan o'rinlar mavjud bo'lgan bo'lsa (jami respublika MTMlaridagi bola o'rinlari 713060 dona bo'lib, ularga qatnovchi bolalar soni 620769 nafar), 2020-yilga kelib maktabgacha ta'lim xizmatiga bo'lgan talab soni mavjud o'rinlar sonidan oshdi (mos ravishda jami 1155731 o'ringa 1196421 nafar[4]).

Oilaviy maktabgacha ta'lim muassasalari sonining oshishi respublikaning chekka hududlari hamda kam ta'minlangan oilalardagi bolalarni ham ta'limning ushbu bosqichiga jalb qilishini ta'minladi. Bu o'z navbatida, viloyatlar, shahar va qishloqlar o'rtasidagi nomutanosiblik darajasini kamaytirishga salmoqli hissa qo'shdi. Beshta hududdan (Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Namangan va Toshkent viloyatlari) oilaviy MTMlarning 3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirishga qo'shgan hissasi Jizzax viloyatida (15 %) eng ko'proq bo'lsa, eng kam ulush Toshkent viloyatida (4,3%) kuzatilgan. Ta'kidlash joizki, Toshkent viloyatida qamrov darajasi 5 yil avval ham o'rtacha respublika ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan. 2015-yilda Qashqadaryo viloyatida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish, nafaqat tanlangan hududlar orasida, balki butun respublikada bo'yicha eng past (9,9%) darajada edi. 2020-yilga kelib, Qashqadaryo viloyatida ushbu ko'rsatkich – 3,4, Jizzaxda – 4, Namanganda – 3, Samarqandda – 3,1 va Toshkent viloyatlarida – 1,6 barobar oshdi. Respublikaning 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan jami bolalarning 43,9 foizi ushbu hududlarda yashaydi.

Maqsadli parametrlarga erishish uchun maktabgacha ta'limning an'anaviy shakllarini rivojlantirish bilan bir qatorda, qisqa muddatli, mobil maktabgacha ta'lim guruhlari va boshqa shu kabi uning muqobil shakllarni keng rivojlantirish ham ko'zda tutilgan. Maktabgacha ta'lim vazirligining ma'lumotlariga ko'ra[5], yangi mobil "Aqlvoy" guruhlari 2021-yilning yanvar oyida faoliyat yurita boshlagan. Ushbu guruhlar bolalarni maktabgacha ta'lim bilan eng kam qamrab olingan, bolalar bog'chalari mavjud bo'lmagan chekka hududlarda ochilishi hamda bolalarning ularga qatnashi tekin bo'lishi yuritishi ko'zda tutilgan. Mobil guruhlarning tarbiyachilari qo'shimcha malaka oshirish kurslarida, jumladan, birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha ham o'qitiladi.

Xorijiy olimlar tomonidan inson kapitaliga qilingan investitsiyalarning kelajakda eng ko'p naf keltiradigani shaxs shakllanishining dastlabki, ya'ni maktabgacha ta'lim bosqichida qilingan investitsiyalar ekani isbotlagan.

Qayd etish joizki, ijtimoiy-iqtisodiy holati pastroq bo'lgan oila farzandlariga maktabgacha ta'lim yoshida qilingan investitsiyalar, o'ziga to'q oila farzandlariga qilingan investitsiyalarga nisbatan ko'proq foyda keltiradi. Sababi maktabgacha ta'lim bolaning nafaqat ijtimoiylashishiga ko'maklashadi, balki shaxsning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga asos yaratadi va maktabga tayyorlaydi. Aynan shu bois maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish Konsepsiyasida 6 yoshli bolalarni 2021-yil yakuniga kelib, maktabga tayyorlash tizimi bilan to'liq qamrab olish maqsadli paramert qilib belgilangan.

2015-yildan 2020-yilgacha tahlil qilinayotgan hududlardan 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorgarlik tizimi bilan qamrab olish bo'yicha Jizzax (qamrov 67%), Samarqand (61,4%) va Namangan (44,6%) viloyatlarida eng yaxshi natijalarga erishilgan. Qashqadaryo (22%) va Toshkent (15,9%) viloyatlarida bolalarning 78% va 84% maktabga tayyorlov tizimi bilan qamrab olinmagan.

Bunday yutuqlarga qaramay, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishda hali ham yechimini kutayotgan vazifalar mavjud. Hal etilishi lozim bo'lgan asosiy muammolardan biri bu shahar va qishloq joylarida maktabgacha ta'limdan foydalanish imkoniyatining nomutanosibliigidir. Qishloq joylarda maktabgacha ta'lim muassasalari sonini ko'paytirish bo'yicha muvaffaqiyatlar kuzatilayotgan bo'lsa-da, shahar muassasalariga nisbatan sifat va resurslar bo'yicha hali ham jiddiy kamchiliklar mavjud.

Yana bir qiyinchilik – bog'cha puli to'lovi muammosi, chunki O'zbekistondagi ko'plab oilalar farzandlarini maktabgacha ta'lim muassasalariga berish bilan bog'liq xarajatlarni o'z zimmalariga olishga qiynalmoqda. Hukumat tomonidan kam ta'minlangan oilalarni qo'llabquvvatlash bo'yicha subsidiya dasturlari amalga oshirilgan bo'lsa-da, barcha bolalarning yuqori sifatli erta ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim tizimiga qo'shimcha sarmoya kiritish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Majlisga murojaatnomasi 29 dekabr 2020 yil
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30 sentyabr 2017 yildagi №PF-5198 «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni
3. "Mustaqillik yillarida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalari" Xasanova Marg'uba Safar Qizi. Volume 4, Issue 7: Special Issue (EJAR) ISSN 2181-2020 Page 413
4. Oilaviy maktabgacha ta'lim muassasalarining ko'rsatkichlarini qo'shmagan holda
5. <https://mdo.uz/ru/mdo-zapuskaet-mobilnye-doo-na-baze-avtobusov-v-novyh-lokacziyah/press-centr/ministry-news/>